

O'SISHNI BOSHQARUVCHI MODDALARNI POMIDORNING CHERRI NAVI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

Bobojonov O. X.

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Sattorberdiyeva N. M., Ozodova G. Sh.

Urganch davlat universiteti, "Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish yo'nalishi" talabalari

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: cherri, pomidor, gidrogel, faza, blek cherri, radimax.

Annotatsiya

Mazkur maqolada turli xil o'stiruvchi moddalarning Cherri pomidor navi o'suv fazalarini davomiyligiga hamda hosildorligiga turli miqdordagi meyorlari ta'siri o'rganildi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Kirish. Ma'lumki, pomidor issiqxonalarda etishtiriladigan asosiy sabzavot ekinlardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Lekin, respublikamizda cherri pomidorning faqatgina 2 ta duragayi va 5 ta navi rayonlashgan xolos. So'ngi yillarda ushbu pomidorni navlarini istiqbollilarini ajratib olish hamda mahalliy iste'molchilar talablariga mos, yuqori hosilli mahsulot etishtirish talabi qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda sabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va mahsulot eksport salohiyatini kuchaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-mart PQ-4246-sonli "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmon va Qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PQ-5853 sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini 2020-2030-yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi" axolini oziq-ovqat xavfsizligini va to'g'ri ovqatlanish madaniyatini ta'minlash asosiy vazifalardan biri qilib belgilangan. [1]

To'g'ri ovqatlanish uchun sabzavotlar assortimentini ko'paytirish, yangi navlarni yaratish, mahsulot sifatini yaxshilash ko'zda tutilgan hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy xujjatlardagi vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Shu bilan birga cherri pomidor hosildorligiga turli xil regulyatorlarni ta'sirini o'rganishni taqazo etmoqda [1, 2.].

Material va metodlar. Tadqiqot 2021-2022-yillar davomida Xorazm viloyati Yangariq tumani Tagan qishlog'idagi "GLOBAL FOOD IMPEX" MCHJ ga qarashli gidraponika uslubidagi 16 gektarlik issiqxonada olib borildi. Bunda cherri pomidorni Blek cherri naviga 6 xil o'sishni boshqaruvchi moddalarni qo'llashning o'sish va rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Har bir delyankada 20 ta o'simlik joylashgan bo'lib, oziqlanish maydoni ekish sxemasiga qarab 8,4 m² ni tashkil etdi. Tajribada pomidor o'simligi hosili o'suv davri davomida 10-12-marta terib olindi va tavsiya etilgan uslubiyatlar asosida o'tkazildi [5.].

Tadqiqot natijalari. Tajribada cherri pomidorni Blek cherri naviga turli xil o'sishni boshqaruvchi moddalarni qo'llashning o'sish va rivojlanishiga ta'siri aniqlandi. Bunda fenologik kuzatuvlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, 1 va 5 chin barglarni paydo bo'lishi, quruq urug' ekilgan va toza suvda ivitib ekilgan variantlarga nisbatan o'stiruvchi moddalar qo'llanilgan variantlarning barchasi ertaroq barg xosil qilishi kuzatildi. Nisbatan eng erta 5 chin bargning paydo bo'lishi Hidrogel moddasi qo'llangan variantda 20 chi kunda kuzatilgan. Qolgan moddalar qo'llanilgan variantlarda esa 21-25 kuni, nazoratga nisbatan 10-15 kun erta sodir bo'lishi kuzatildi (1-jadval.).

Tajribada o'simliklarning gullashi va mevalarning pishib etilishida xam nazorat variantga nisbatan qo'llangan barcha o'stiruvchi moddalar ertaroq ushbu fazaga kirganligi aniqlandi. Bunda gullashi nazoratga nisbatan 9-14 kun ertaroq va mevalarni pishib etilishi esa 8-16 kun avvalroq kuzatilganligi aniqlandi. Eng erta pishib etilgan variantlar Hidrogel moddasi bilan urug' va ko'chatlarni birgalikda ekilgan, Radimax (100 ml/100 l) moddasida ivitib ekilgan variantlarda 98-101 kunda mevalar pishib etilgan.

1-jadval. Turli xil o'stiruvchi moddalarning cherri pomidor o'suv fazalarini davomiyligiga ta'siri (2021-2022 yy.).

Variantlar	Urug'larni yoppasiga unib chiqqandan kunlar soni:					Hosil berish davri, kun	
	unib chiqishi		chinbarg paydo bo'lishi		gullashi		mevaning pishishi
	10%	75%	1-chi	5-chi			
Quruq urug'ni ekish, nazorat	7	8	9	29	52	114	136
Urug'ni toza suvda ivitib ekish	6	8	8	27	49	111	141
Urug'ni Radimax (100 ml/100 l) moddasida ivitib ekish	6	6	6	22	42	101	157
Radimax (100 ml/100 l) da urug'ni ivitish va o'simlikka 2 marta purkash	6	6	6	23	43	102	151
Urug'ni Grower (150 ml/100 l) moddasida ivitib ekish	6	7	7	24	45	105	148
Grower (150 ml/100 l) da urug'ni ivitish va o'simlikka 2 marta purkash	6	7	7	24	44	106	148
Urug'ni Hidrogel moddasi bilan birgalikda ekish	6	6	6	21	39	99	157
Ko'chatlarni Hidrogel moddasi bilan birgalikda ekish	7	7	8	20	38	98	158

O'rganilgan variantlar ichida Hidrogel moddasi bilan urug' va ko'chatlarni birgalikda ekilgan, urug'ni Radimax (100 ml/100 l) moddasida ivitib ekilgan variantlarda (98-101 kun) ertapishar va hosil berish davomiyligi uzoq (156-158 kun) bo'lganligi aniqlandi.

Tajribada turli xildagi o'stiruvchi moddalar cherri pomidor o'simligini er ustki qismini o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir etgan. Bunda nazoratga nisbatan kuchli bo'lgan o'stiruvchi moddalardan Hidrogel moddalari ajralib chiqdi.

O'tkazilgan tadqiqotda o'stiruvchi moddalarni qo'llashda fuzarioz so'lish kasalligi bilan zararlanish darajasi kuzatildi (2-jadval.).

Tajribada kasallik odatdagi fonda, ko'z bilan aniqlandi va kuzatuv natijalariga ko'ra, nazorat quruq urug' ekilgan va toza suvda ivitib ekilgan variantlarda 4 foiz fuzarioz so'lish kasallik bilan kasallanish

kuzatildi Olib borilgan tajribada cherri pomidor o'simligi shingillarining soni xisoblab chiqilganda, variantlar aro 25-31 donani tashkil etib, nazoratga nisbatan barcha qo'llangan variantlar 2-6 dona ko'p meva xosil qildi.

2-jadval. Turli xil o'stiruvchi moddalarni cherri pomidor xosildorligiga ta'siri.

Variantlar	Fuzarioz so'lish bilan kasallanishi, %	Shingildagi mevalar soni, dona	Tovarbo p hosil, kg/m ²	Tovarbo p hosil ulushi, %	Standartga nisbatan, %
Quruq urug'ni ekish, nazorat	4	25	15,4	90,8	100
Urug'ni toza suvda ivitib ekish	4	25	15,8	93,2	103
Urug'ni Radimax (100 ml/100 l) moddasida ivitib ekish	0	27	15,9	93,9	104
Radimax (100 ml/100 l) da urug'ni ivitish va o'simlikka 2 marta purkash	0	28	16,4	93,8	108
Urug'ni Grower (150 ml/100 l) moddasida ivitib ekish	0	27	16,0	92,9	104
Grower (150 ml/100 l) da urug'ni ivitish va o'simlikka 2 marta purkash	0	27	16,2	93,2	106
Urug'ni Hidrogel moddasi bilan birgalikda ekish	0	30	17,1	94,2	108
Ko'chatlarni Hidrogel moddasi bilan birgalikda ekish	0	31	17,9	95,0	113
EKMF ₀₅			0,8		
Sx, %			3,8		

Tajribada cherri pomidorni Blek cherri naviga xar xil o'sishni boshqaruvchi moddalarni qo'llashning hosildorlik ko'rsatkichiga ta'siri aniqlandi. Tajribada pomidorni bir kvadrat metrda o'simlikdan olingan hosildorlik ko'rsatkichlari ham hisoblab chiqildi. Bunda eng yuqori tovarbop hosil Radimax moddasini 200 ml/100 l me'yorda urug'larni ivitish va bargidan oziqlantirish variantlarida 16,4-17,1 kg/m², ko'chatlarni Hidrogel moddasi bilan birgalikda ekish variantida – 17,9 kg/m² hosil olindi va tovarbop hosil ulushi esa 94,2-95,0 foizni tashkil etdi. Tajribada eng kam xosil to'plagan nazorat variant bo'lib, qolgan variantlarda tovarbop hosil mikdori nazoratga nisbatan 3-14 foizga yuqori xosil berganligi va hosil sifati yaxshi ekanligi aniqlandi.

Xulosa.

- Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'simliklarning gullashi va mevalarning pishib etilishida xam nazorat variantga nisbatan qo'llangan barcha o'stiruvchi moddalar ertaroq ushbu fazaga kirganligi aniqlandi. Bunda gullashi nazoratga nisbatan 9-14 kun ertaroq va mevalarni pishib etilishi esa 8-16 kun avvalroq kuzatilganligi aniqlandi.
- Tajribada cherri pomidorni Blek cherri naviga xar xil o'sishni boshqaruvchi moddalarni qo'llashning hosildorlik ko'rsatkichiga ta'siri aniqlandi va eng yuqori tovarbop hosil Radimax

moddasini 200 ml/100 l me'yorda urug'larni ivitish va bargidan oziqlantirish variantlarida 16,4-17,1 kg/m², ko'chatlarni Gidrogel moddasi bilan birgalikda ekish variantida – 17,9 kg/m² hosil olindi va tovarbop hosil ulushi esa 94,2-95,0 foizni tashkil etdi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestri. Toshkent, 2020. 48-51 b.
2. Xakimboy o'g'li, B. O. (2023). QOVUNNING "OQ NOVVOT" VA "ZARGULOBI" NAVLARI XOSILDORLIGIGA BIOSTIMULYATORLARNING TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 171-173.
3. Ramatov, B. Z., Matyaqubov, M. M., & Bekchanov, X. Y. (2023). XORAZM VILOYATI SHAROITIDA QOVOQ URUG'INI UNUVCHANLIGINI O'RGANISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(19), 7-9.
4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - Москва, Агропромиздат, 1985. – 351 с.